



TOSHKENT

FARMATSEVTIKA INSTITUTI

TALABALAR ILMIY JAMIYATINING AN'ANAVIY 80-ILMIY ANJUMANI

**“INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM” YILIGA BAG'ISHLANGAN
“FARMATSEVTIKADA IQTIDORLI YOSHLARNING ILMIY
SALOHIYATI” MAVZUSIDAGI TALABALAR UCHUN
“80-TALABALAR ILMIY JAMIYATI”
ILMIY ANJUMANI TO'PLAMI**



TOSHKENT-2023



Ulug' allomalarimiz, o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak. Biz bunday iqtidorli yoshlarga o'z vaqtida har tomonlama e'tibor qaratib, qo'llab-quvvatlasak, o'ylaymanki, ular katta-katta zafarlarni qo'lga kiritadilar.

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.Mirziyoyev***

The value of bulk density equal to 247.11 cm³ also did not correspond to obtain solid dosage form - tablets by direct compression. The residual moisture content of the substance was 3.26 %.

Conclusions. The results of study of technological parameters of efavirenz substance with antiretroviral activity showed that for selection of composition and development of technology of generic drug in form of tablets it is necessary to introduce excipients into the mass and use of pelletizing method for improvement of these parameters

KALANCHOE GEL DORI TURINING TURG'UNLIGINI ANIQLASH

Kamolova X.A., Nazarova Z.A.

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent shahar, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: kamolovahulkar3@gmail.com

Dolzarbliigi. Stomatologik kasalliklarini davolashda va oldini olishda zamonaviy stomatologik xususiyatlari va belgilanishi bo'yicha turli xil dori preparatlari mavjud. Lekin oxirgi paytda stomatologiya amaliyotida og'iz shilliq qavatining yallig'lanishi tufayli paradontoz, gingivit, stomatit, glossit kasalliklarining soni oshib borishi kuzatilmoqda. Stomatologik kasalliklarini davolashda samarali va xorijiy preparatlar o'rnini bosuvchi preparatlarning yangi mo'tadil tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalarda biridir.

Avvalgi o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tarkibida kalanhoy shirasi va furatsilin saqlovchi stomatologik gel tarkibi va texnologiyasi, shuningdek "Kalanchoe gel" sifatini baxolash usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi: yuqoridagilarni hisobga olgan xolda tarkibida kalanhoy shirasi va furatsilin saqlovchi stomatologik gelning saqlash davomida turg'unligini aniqlashdan iborat.

Usul va uslublar: Taklif etilgan Kalanchoe gel tarkibi va texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqilgan kalanhoy shirasi va furatsilin saqlovchi stomatologik gelning aniq o'rnatilgan vaqtda sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda me'yoriy hujjatlar va adabiyotlarda keltirilgan usullardan foydalanildi; quyidagi sifat ko'rsatkichlari baholandi: tashqi ko'rinishi, chinligi, bir xilligi, gelning suvli ajratmasining pH i, faol moddalarning miqdori. Gelning dastlabki sifat ko'rsatkichlari va har olti oy tabiiy usulda saqlangandan so'ng aniqlandi.

Tayyorlangan "Kalanchoe gel" njng turg'unligini ta'minlash uchun ko'p qirrali plastmassa bushonli alyuminiy tubalarga joylashtirildi (Тубы и бушоны для медицинских целей (ТУ 64-7-678-90). Gelning 25,0 g dan tubalarga solib salqin, yorug'lik tushmaydigan joyda saqlandi.

Natijalar: Dori vositalarning turg'unligi ko'pincha jihozlovchi materialning kimyoviy tarkibi va xususiyatlariga bog'liq. Bu muhim masala bo'lib, shuningdek jihozlovchi materiallarni tashqi muhit (yorug'lik, harorat, namlik) ta'siridan dori preparatlarni saqlash xossalar ham alohida e'tiborga olinadi.

"Kalanchoe gel"ning kuzatilgan muddat 18 oy davomida tashqi ko'rinishining o'zgarganligi kuzatilmadi. Gelning tashqi ko'rinishi sarg'ish rangli, bir xil, qavatlariga ajralmagan, pH ko'rsatgichi – 5,8 , massa yo'qotishi – 8,9% , flavanoidlar miqdori - 0.0026% , furatsilin - 0,02% tashkil etdi.

Xulosa: Ilk bor taklif etilgan kalanhoy shirasi va furatsilin saqlovchi stomatologik "Kalanchoe gel" ning kuzatish muddati 18 oy davomida aniqlangan sifat ko'rsatkichlari o'zgarmaganligi tasdiqlandi.